

BADIIY ASARDA QAHRAMONLAR XARAKTERINI TASVIRLOVCHI VOSITALARNING AHAMIYATI (LENGSTON HYUZNING „ RAHMAT SIZGA, XONIM” HIKOYASI MISOLIDA)

Sotimboyeva Dilnura Axmedjon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

dilnurasotimboyeva@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada badiiy asar tahlilida qahramonlar xarakterini tasvirlovchi vositalarning o'rnini haqida mulohaza qilinadi. Amerika adabiyotining mashhur shoir, yozuvchi, dramaturgi Lengston Hyuzning 6-sinf adabiyot darsligida keltirilgan „Rahmat sizga, xonim” hikoyasi qahramonlarining xarakterini ochib beruvchi vositalar xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: qahramon, ruhiyat, xarakter, psixologizm, monolog, dialog.

ANNOTATION

This article discusses the role of characters' characters in the analysis of a work of art. We will think about the tools that reveal the character of the characters of the story „Thank You, Madam” by Langston Hughes, a famous American poet, writer, and dramatist, in the 6th grade literature textbook.

Key words: hero, psyche, character, psychologism, monologue, dialogue.

Bilamizki, badiiy adabiyotda qahramon ruhiyatini davr ruhi, asarning bosh g'oyasi bilan chuqur bog'lagan holda yoritib berishning eng samarali usullaridan biri qahramon yolg'iz holatda tasvirlansa monolog, agar bir necha qahramonlar nutqi bo'lsa dialoglardan to'g'ri va o'z o'rnida foydalana bilishdir. Biz tahlil qilmoqchi hikoyada ko'proq ikki inson suhbatini ya'ni dialogdan mohirlik bilan foydalanilgan.

Qahramon ruhiyatini ochishda yozuvchining mahorati ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ruhiyatning ochib berish masulyati to'g'risida o'zbek hikoyanavisi Abdulla Qahhorning o'zi shunday yozgan edi: „Psixologizm kishilarning ichki dunyosiga, ularning latif zarif tomonlari va go'zalligiga yaxshi e'tibor qilish to'g'risida jiddiy o'ylab ko'rish fursati yetdi. Bu yozuvchilik mahoratining eng muhim jihatidir”.

[1]

Amerika adabiyotining yorqin vakillaridan biri Lengston Hyuzning „Rahmat sizga, xonim” hikoyasida qahramonlarning ruhiyatini turli xil usullar va vositalarda tasvirlagan. Hikoya yozuvchi tilidan hikoya qilish bilan boshlanar ekan, o'g'irlik sodir bo'lishi va ayolni tashqi ko'rinishini bilan bolaning holatini tasvirlaydi.

„То‘ladan kelgan bir ayol yo‘lak bo‘ylab ichiga hamma narsa sig‘adigan katta sumkasini ko‘tarib ketib borardi. Chindan ham, sumkaning ichida yo‘q narsaning o‘zi yo‘q edi, albatta, odamning jonidan boshqa. Bog‘ichi uzunligidan ayol uni yelkasi osha orqasiga tashlab olgan cha ko‘cha bo‘ylab yolg‘iz ketayotgandi. Soat tungi o‘n birlar edi, bir payt uning yoniga shuv etib bir bola yetib keldi va ayolning sumkasini yelkasidan yulib oldi. Ayol o‘ziga kelmay turib, bog‘ichi bitta tugmacha bilan qadalgan sumka shart uzilib, bolaning qo‘lidan tushib ketdi. Sumkaning og‘irligidan muvozanatini yo‘qotgan bola yiqilib tushdi va oyog‘i jarohatlandi. Ayol esa bolaning yelkasidan ushlab jahl bilan turg‘azdi.”[2] Bu parchadan Luella xonimning kutilmagan vaziyatlarda o‘zini yo‘qotib qo‘ymaydigan inson ekanligini bilishimiz mumkin. Chunki Rojer uning sumkasini o‘g‘irlamoqchi bo‘lganida o‘zini yo‘qotib qo‘ymadi. O‘g‘ri bola Rojerning zaif va nimjon ekanligi sumkaning og‘irligidan muvozanatini yo‘qotib yiqilgan holatidan ko‘rishimiz mumkin. Demak, bu vaziyatda yozuvchi tilidan asar qahramonlarining har ikkalasi tasvirlangan.

„ -Meni politsiyaga topshirasizmi? –so‘radi bola yuzini yuvayotib.

Qo‘rqmay yuvinaver, bunaqa kir holingda sen bilan ko‘chaga chiqib bo‘larmidi?– dedi ayol.”[3] Bu o‘rinda Luella xonimning kechirimli inson ekanligini ko‘ramiz. Rojer kambag‘alligini juda kirligidan aftiga qarab bo‘lmasligidan, shu bilan birga cho‘pdek ozg‘inligi ko‘rsatib turadi. Lekin Luella xonim ham boy emasligini sumkasi tasviridan bilib olamiz. U davrda boy xonimlar odatda kichkina, chiroyli sumka taqib yuradigan bo‘ladi. Xonimning sumkasi katta shu bilan birga u go‘zallik salonida kechgacha ishlaydigan ayol. Shunday bo‘lishiga qaramasdan xonim g‘amxo‘r va mehribon. Ovqat berayotgan paytda „-Yana bir oz yeb ol, o‘g‘lim!” degan birgina gapi uning ko‘ngli yumshoq ekanligidan dalolat beradi. Rojer ham xonimning g‘amxo‘rligini qadrlashini „-Do‘konga chiqib, biror narsa olib kelib beraymi?– so‘radi bola. –Sut yoki biror yegulikmi...” jumladan anglaymiz. Personaj nutqida aytilayotgan har bir so‘z uning ruhiyatini, xarakterini ma‘lum bir ma‘noda ochib berish uchun xizmat qiladi. „Insonning ruhiy dunyosi o‘zaro suhbatlarda, tortishuvlarda, dialog va monologlar vositasida ochiladi”.

Luella xonimning xarakterini har bir suhbatidagi nutqidan bilishimiz mumkin. U mehmondo‘st, muzlatkichidagi lima loviyalarni va go‘shetni hammasini dasturxonga bolaning oldiga qo‘ydi. Xonim Rojerning hayotiga jonkuyar, loqayd emas. Unga hayotida bo‘lgan voqealarni aytib berib, qaytib o‘g‘irlik qilmasligiga undaydi. U barcha narsalardan saboq olishga chaqiradi. Ikkala qahramonimizga nisbatan samimiy, ochiq inson desak bo‘ladi. Luella xonimning ushbu nutqi gapimizning dalilidir.

„ - Lekin... hech kimning hamyonini o‘g‘irlamaganman, deyishimni kutyabsizmi? Yo‘q, bu haqda gapirmoqchi emasman. Shunday ishlar qilganmanki, imkoni bo‘lsa, ularni Xudodan ham yashirgan bo‘lardim, o‘g‘lim...” Rojer ham ochiq

holatda xonimga nima uchun o'g'irlik qilgani to'g'risida gapirib beradi. „ -Men faqat zamsha tufli olmoqchi edim...

-Rostdanmi, xonim?!

- yuzidan suv tomib turgan bolakay ajablanib so'radi beixtiyor.”[4]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, badiiy asarda qahramonlarni tavsiflash uchun qo'llanishi mumkin bo'lgan vositalar qahramonlar nutqi, ularning xatti-harakatlari, yashash joyi yoki unga tegishli buyumlarda o'z aksini topgan bo'ladi. Bularni tushunish uchun asarni sinchklab o'qigan holatda anglash kerak. Qahramon nutqidagi har bir jumla alohida nimagadir ishora berayotgan bo'ladi. Yuqorida ko'rib o'tganimizday Luella xonimning sumkasi katta deb tasvirlangan. Bu uning zodagon emasligini anglatadi. Demak, badiiy asar yaratilar ekan, unda qahramon xarakteri, ruhiyati, albatta, tasvirlanar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent, 1979-yil [1]
2. Mirzayeva Z, Jalilov K. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 6-sinf darslik. Toshkent-2022. [2,3,4]
3. Husanboyeva Q, Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent-2018
4. WWW.Ziyo.uz